

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА PSIXOLOGIK MUHITNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Xudayberdiyeva Dilrabo Rabbonqulova

Buxoro viloyati Qorako'l tumani 46-son DMTT uslubchisi

Annotatsiya: Kelajagimiz bo'lgan bolajonlarimizga yoshligidan e'tibor berib, ularni sifatlari ta'lim olishlari uchun ham ruhan ham jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishlarida kerakli sharoitlarni yaratib berish davlatimiz bilan birgalikda ota-onalarning ham zaruriy burchi hisoblanadi. Ularga har qanday sharoitda sog'lom psixologik muhitni yaratib berish darkor. Bu ularni kelajakda o'ziga ishongan, muvaffaqiyatli, yetuk kadr, jamiyatda o'z o'rniiga ega fuqaro bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar : pedagog konpitensiyalari, ta'lim, islohotlar, konsepsiya, kompleks, bog'cha, psixologik ta'lim, ma'rifat, diagnostika, psixologik muhit, individuallashtirish, maslahat, ishonch, mehr.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, hamda ta'lim –tarbiya jarayoni samaradorliligin zamон talablari darajasiga olib chiqishda ,axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonlarini tashkil etishda yangicha yondashuvlar asosidagi texnologiyalar tobora rivojlanib, takomillashtib bormoqda. Bolaning ilk maktabgacha yosh davri, shaxs sifatida shakllanishning muhim davri hisoblanadi. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbaridan tortib posbonigacha yuksak mas'uliyat, ijodkorlik, bolajonlik talab qilinadi. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish, bolalarni o'sishi va rivojalanishida hamda ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etishda tashkilotda sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltirish zarur. Maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish umumiyl holatda keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotining binosini holati, tashkilotning har bir jamoasi jumladan tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyalanuvchilar, shunindek jamoa, ota-onalar hamda tarbiyalanuvchilarining takomillashtirilgan "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishda pedagogik-psixologik, metodik, bolalar, badiiy adabiyotlar soni va sifati, tashkilotni adabiyot bilan boyitib borishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda, ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda takomillashtirilgan "Ilk qadam" o'quv dasturi, mazkur dasturlar asosida yaratilgan metodik tavsiyalar, qo'llanmalar asosida bolalarning

kundalik faoliyatni mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, bolalarni qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab bolaga ijodiy yondashish, bolalar uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlar va manbalarni tarbiyalanuvchilar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari metodologik muammolariga barcha davrlarda ham alohida e'tibor qaratilgan. Bugun ham mamlakatimizda bilimning bu sohasiga qiziqish kuchayib bormoqda. Metodologiya ham amaliyot o'quvchilaridan ortda qolishi, ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarish qonuniyatlariga bog'liq holda rivojlanmasligi mumkin emas. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish, psixologik xizmat sohasini yo'lga qo'yishni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Yosh avlodga ta'lim tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan. Psixologiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning psixologiya fanining asoslari, tarixiy taraqqiyoti, hozirgi zamon psixologlarining ilmiy yondashishlari bilan, shuningdek, turli yoshdagi insonlarda o'qish jarayonida jarayonida shaxs fazilatlarini shakllantirish qonuniyatları va kasbiy malakalarini egallash xususiyatlari bilan tanishtirishdir. Hozirgi kunda zamonaviy tarbiyachi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lishi, umumiyligi va kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida ma'suliyatli bo'lishi lozim. Bolalar psixologiyasida psixologik ta'lim umumiyligi ma'lumotlar bilan chegaralanmaydi, balki, maktabgacha ta'lim tashkilotining o'ziga xos xususiyatlarini, ota-onalar va bolalarning o'ziga xosligini hisobga oladi. Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bolaning ruhiy va aqliy salomatligini ta'minlashdir. Maktabgacha psixologik yoshdagi davrda individuallashtirilgan shaxsiy xususiyatlarini (kuch, tezlik, hajm, sur'at, ritm) takomillashtirish, rivojlanish mazmun jihatdan va rasmiy-dinamik xususiyatlar davri hisoblanadi. Bolalikda biz bilan sodir bo'lgan barcha voqealar bizning keying rivojlanish davrimizda chuqur iz qoldiradi. Bolaning qiyinchilik va yordamga muhtoj chog'ida ota-onha sezgirligi va farzandiga nisbatan mehr-muhabbatning yetarlicha bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar psixolog xizmatidan foydalangandan so'ng va uning natijasi ijobiy tomonga o'zgarganini his qilsalar, nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologiga nisbatan ishonch, mehr, sevgi, hayrixohlik va albatta yuksak hurmat bildiradilar. Shu sababdan psixolog individual va guruhli ishslash jarayonida hech bir holatni va

bolalar xususiyatini ko‘zdan qochirmasligi lozim. Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologiyasi quyidagi yo‘nalishlar asosida ish olib borsa samarali natija oladi.

Psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari:

- Psixologik ma’rifat.
- Psixologik oldini olish.
- Psixologik diagnostika.
- Psixologik tuzatish.
- Psixologik maslahat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy pedagog javob berishi kerak bo‘lgan talablar kompleksini belgilaydi.

Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi

- Pedagogik tehnika
- Pedagogik ijod
- Pedagogik madaniyat

Pedagogning kompetensiyaviy yondashuvi

Pedagogik texnika – o‘qitish, ta’sir ko‘rsatish, ta’lim tarbiya oluvchilarga o‘z his-tuyg‘ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala – tarbiyachi kasbiy faolligining bir ko‘rinishi bo‘lib, ta’lim - tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’sir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik ijod – tarbiyachining mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘lni, bu yo‘ldagi qiyinchiliklardan qo‘rmaslikni anglatadi. O‘z navbatida bu sohada tarbiyachining pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda tarbiyachining aqliy, emosional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchilagini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog‘liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat pedagog-tarbiyachilik burchi, mas’uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e’tiqodini nazarda tutib, tarbiyachining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo‘yligi, to‘g‘riligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) – tarbiyachining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o‘lchovi, me’yori va ta’sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv-tarbiyaviy jarayonini individuallashtirish psixologning har bir bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishining to‘laqonli ruhining individual, rasmiy-dinamik xususiyatlarini hisobga olish alohida o‘rin tutadi, bolalarning aqliy holati, jarayonlari, xatti-harakatlari va faoliyatining

dinamikasini aniqlaydigan temperamentdagi bolalar bilan muayyan strategiya va taktikalarni ishlab chiqarish hisoblanadi

Xulosha: Bog'chalarda bolalar o'zlarini yaxshi his qilishlari uchun ularga to'g'ri sog'lom munosabatlarni tashkil qila olishimiz kerak bo'ladi. Bolalar bog'chaga nima uchun borgisi kelmaydi? Bu bog'chada sog'lom muhitni yo'qligi emas, bolaga sog'lom psixologik munosabatlarni tashkil qila olmasligimizda bo'ladi. Birinchidan, biz kattalar bolalarni kattalardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini tushunishimiz kerak. Bolalar hali o'z shaxsiyatini shakllantirmagan va rivojlanish jarayonida. Shuning uchun ota-onalar, o'zlarini kutganidek tutmasa, sabr-toqatli va tushunadigan bo'lishlari kerak. Ikkinchidan, bolalar mehr-e'tiborga muhtoj. Bolalar ota-onalari tomonidan sevilishini, qadrlanishini his qilsa, u o'ziga ishonchi baland muvaffaqiyatli shaxs bo'lib ulg'ayishi mumkin. Uchinchidan, bolalar atrof-muhitga juda sezgir bo'ladilar. Ular har doim yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganadilar va o'zlashtiradilar. Shuning uchun uyda ijobiymuhit yaratish, bolalar bilan bilan hurmat va mehr bilan munosabatda bo'lish muhimdir. To'rtinchidan, bola psixologiyasi bolani tarbiyalashda bevosita ota-onalarga yordam berishi mumkin. Agar bolaning tarbiyasida biron nojo'ya o'zgarish bo'lsa albatta psixologga murojaat qilish kerak. Shunday ekan, farzandiga yaxshi o'rnatishlozim. Bolani tarbiyalash sabr-toqat, sevgi,e'tibor talab qiladigan doimiy jarayon ekanligini unutmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Shamshetova A.K, Saipova M.L. Bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.2022 y.
- 2.Oila psixologiyasi. (Shoumarov G'.B. tahriri ostida). T.2000.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom. T-2018.
- 4.www.lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari.